

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

3-son (5-jild)
2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 3 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti.

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori, O'zbekiston Milliy Universiteti;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Milliy Universiteti.

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent moliya instituti;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Bojxona instituti;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent, Farg'ona politexnika instituti

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b, Toshkent moliya instituti;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari

nomzodi, dotsent, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori, "Tashkent International University of Education" xalqaro universiteti;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent, Jizzax pedagogika instituti;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent, Andijon davlat tibbiyot instituti, Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasini mudiri;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent, Buxoro davlat universiteti.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat universiteti;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor, Samarqand davlat chet tillar instituti;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, Samarqand davlat universiteti;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b., Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD), O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi huzuridagi Sudyalari oliy maktabi;

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi, Toshkent davlat yuridik universiteti;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat yuridik universiteti;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor, Qarshi davlat universiteti;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti;

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Samarqand davlat universiteti.

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasi mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD), Samarkand viloyat IIB Tibbiyot bo'limi psixologik xizmat boshlig'i.

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrda 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

<i>Mansurov Ulug'bek Umarovich</i> FARG'ONA VODIYSI SHAHARLARIDA TIBBIYOT TIZIMIDAGI O'ZGARISHLAR (1917-1990-YILLAR)	12-20
<i>Yuldashev Ulugbek Kadirjanovich</i> O'ZBEKISTONDA PROFESSIONAL TA'LIM BOSQICHIDA DUAL TA'LIM SHAKLINING JORIY QILINISHI TARIXI	21-27
<i>Bobobekova Nargiza Ismatullayeva</i> JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)	28-33
<i>Esanova Nilufar</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONNING YENGIL SANOAT SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR BILAN HAMKORLIGI	34-37
<i>Tursunov Bekzot Yandashevich</i> QO'QON XONLIGI QO'SHININING QUROL-ASLAHALARIGA OID	38-45
<i>Давлетмуратов Куралбай Хожамуратович</i> АНТИЧНЫЕ И СРЕДНЕВЕКОВЫЕ ЗООМОРФНЫЕ МЕТАЛЛИЧЕСКИЕ ИЗДЕЛИЯ ХОРЕЗМА	46-52
<i>Raximov Bektosh, Tashmuradov Umidbek</i> AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR DAVRIDA TASHQI DIPLOMATIK ALOQALARNING DAVLAT SIYOSIY TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI	53-57
<i>Otaxanov Alisher Mamadaliyevich</i> TEMURIY MALIKALARNING ILM-FAN VA IJTIMOIIY TARAQQIYOTGA QO'SHGAN HISSALAR	58-64
<i>Xakimov Ravshan Raimovich</i> MIRZACHO'LNING ETNOEKOLOGIK MUAMMOLARI	65-74
<i>Ergashev Jahongir Yunus o'g'li</i> TURK XOQONLIGINING BOSHQARUVIDA IMPERIYACHILIK XUSUSIYATLARINING O'ZIGA XOS JIHATLARI	75-82

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

<i>Gabriel Ayodeji Ogunmola</i> ЦИФРОВОЙ ДИВИДЕНД: ИЗУЧЕНИЕ ПОТЕНЦИАЛА ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	83-96
<i>Abdullayev Altinbek Yangibayevich</i> KORXONANING KOMPLEKS ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARI VA QO'SHIMCHA MAHSULOT ISHLAB CHIQUARISH HISOBINI YURITISHNING USLUBIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	97-113
<i>Komolov Odiljon Sayfidinovich</i> KREDIT TASHKILOTLARINI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING TAHLILI	114-123

<i>Shaislamova Nargiza Kabilovna</i> MAMLUKAT IQTISODIYOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING ROLI	124-134
<i>Qo'chqarov Baxtiyor Xoshimjanovich</i> KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING AYLANMA MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA UNDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI	135-147
<i>Abdimurodov Baxrom, Abdimurodov Bahodir</i> AKSIYADORLIK JAMIYATLARIDA XODIMLARGA HAQ TO'LANADIGAN HAR YILGI MEHNAT TA'TILINI RASMIYLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH	148-152
<i>Matkarimov Inomjon, Yuldashbayev Azizullo</i> BARQAROR RIVOJLANISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH	153-158
<i>Исламмутидинова Дина Файзрахмановна</i> ТРАНСФОРМАЦИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КОНЕВОДСТВА В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОГО РАЗВИТИЯ ЭКОНОМИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАНИ	159-166
<i>Ravshanov Zaxiriddin Ibragimovich</i> OVQATLANISH XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGINI RIVOJLANTIRISH BORASIDA TAVSIYALAR	167-176
<i>Джуманиязов Уббинияз Исмайл улы</i> ПРИМЕНЕНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В СЕЛЬСКОМ ХОЗЯЙСТВЕ КИТАЯ	177-183
<i>To'lov Ulu'bek Toshmamatovich</i> YERLARNI BAHOLASH VA SOLIQA TORTISHNING METODOLOGIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH	184-193
09.00.00 – FALSAFA FANLARI	
<i>Xolmirzaev Xurshid Nakibillaevich,</i> IJTIMOIY-KASBIY FAOLIYAT JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKTNING INSON SALOHİYATIGA TA'SIRI	194-200
<i>Tashanov Abduxoliq</i> QADIMGI SHARQ MANBALARIDA INSON BUZG'UNCHILIGI HAQIDAGI QARASHLAR ...	201-206
<i>Muhamedov Asror Asadovich</i> UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA YUSUF XOS HOJIB FALSAFIY MEROSIDAN FOYDALANISH	207-213
<i>Жумаева Шахло Суюновна</i> ВОПРОС НРАВСТВЕННОГО СОВЕРШЕНСТВА В УЧЕНИИ АХМАДА ЯССАВИ	214-219
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> HAJVIYLIKNING PSIXOLOGIK IJTIMOIY-MADANIY VA ESTETIK XUSUSIYATI	220-224
<i>G'ulomov Zuxriddin Baxromjon o'g'li</i> AXBOROTLASHGAN JAMIYATDA YOLG'ON AXABOROTLARNING MAZMUN-MOHİYATI VA KONSEPTUAL ASOSLARI	225-231
<i>Xaitov Lazizbek Azamatovich</i> HAKIM TERMIZIYNING FALSAFIY TA'LIMOTI	232-236

<i>Ortiqov Shahriddin</i> SHAXS ESTETIK ONGI VA MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA TEATR SAN'ATINING O'RNI	237-241
<i>Toshboboeva Munavar</i> IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHIT BARQARORLIGIDA XOTIN-QIZLARNING ISHTIROKI	242-248
<i>Murotov Elyor Narzillo o'g'li</i> YANGI O'ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYALARINING UZVIYLIGI VA FALSAFIY TAHLILI	249-255
<i>Soipova Mavjuda Karimjanovna</i> FAZL IBN AHMAD TA'LIMOTIDA NUR VA HARAKAT MASALASI	256-260
<i>Ashurova Xurshida Sag'dullaevna</i> HOJI MUIN ZAMONDOSHI SHOKIR MUXTORINING HAYOTI VA FAOLIYATI HAQIDAGI QARASHLARI	261-264
<i>Karimov Anvarjon Lutfilloyevich</i> IBN SINO FALSAFIY MEROSIDA AXLOQI MASALASI	265-269
<i>Shakambarov Abdurashid Abdujabbarovich</i> MA'NAVIY MARGINALLASHUV DAN HIMOYALANISHDA XORIY TAJRIBASI	270-275
<i>Samadov Jonmurod</i> JALOLIDDIN RUMIY GNOSEOLOGIIYASINING ZAMONAVIY TAHLILI	276-280
<i>Barnoev Sanjar Qurbonovich</i> YUSUF HAMADONIYNING INSON VA KOINOT UYG'UNLIGIGA OID TA'LIMOTIDA ME'YOR MASALALARI	281-286
<i>Ярлакабов Джамшид Мамасултонович</i> СВОБОДА И НЕОБХОДИМОСТЬ КАК ВЕКТОРЫ РАЗВИТИЯ ГЛОБАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА: РЕАЛИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	287-291
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
<i>Isanova Feruza Tulqinovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO HUQUQ SOHASIGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING SINXRON TAHLILI	292-297
<i>Xayrullayeva Shahzoda Farhod qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA SALBIY VA IJOBIY HIS TUYG'ULARNI LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI	298-303
<i>Tadjiyeva Mastura, Umarxonova Dilafruz</i> INGLIZ VA O'ZBEK MAQOLLARIDA "BOYLIK" VA "FAQIRLIK" KONSEPTLARINING AKSIOLINGVISTIK TAHLILI	304-308
<i>Sharipova Nilufar Shaxrillo qizi</i> ZAMONAVIY DUNYO ADABIYOTIDA XALQ KULGISI ASOSIDA KELIB CHIQQAN YANGI BADIY SHAKLLAR	309-312
<i>Ochilova Gulnoza Farxod qizi</i> NUTQ BIRLIKLARI MASALASINING UMUMIY TILSHUNOSLIKDAGI TALQINI	313-316
<i>Alqarov Nazarbek Alisher o'g'li</i> IT MOTIVINING DUNYO VA O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI	317-322

<i>Abdusalomov Firuz Abduxoliqovich</i> HARBIY DISKURSDA BUYRUQNING VOQELANISHI	323-329
<i>Ruzmatova Gulnara Kulmamatovna</i> STYLISTIC AND LINGUACULTUROLOGICAL FEATURES OF IMPLICATURES IN ENGLISH AND UZBEK ANECDOTES	330-333
<i>Safarova Farida, Toshkulova Madinabonu</i> THE STUDY OF TEXT LINGUISTIC	334-337
<i>Amonova Dilshoda Azamat qizi</i> ADABIYOTDA BADIY OBRAZ TUSHUNCHASI VA UNING XUSUSIYATLARI (DEN BRAUNNING "DA VINCHI SIRI" ROMANI MISOLIDA)	338-343
<i>Sultonova Gulchehra Xusanovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILI NAMUNASI SIFATIDA AFORIZMLARNING MADANIY VA FALSAFIY JIHATLARI	344-348
<i>Makhmudova Mutabar Dustmukhammad kizi,</i> CAUSES OF STEREOTYPE OCCURRENCE	349-353
<i>Sadullaeva Matlyuba Akhrorovna,</i> NUMERIC MYSTERIES: THE ROLE OF NUMBERS AND SYMBOLISM IN "THE DA VINCI CODE"	354-359
<i>Khusenova Shosura Toshtemirovna,</i> DOCTORS' ATTITUDES TOWARD LEARNING ENGLISH: A NEEDS ANALYSIS REPORT	360-363
<i>Mamajanova G'uncha, Shakirova Saida</i> EKVIVALENTLIK VA TAFOVUT MEZONLARI ASOSIDA O'ZBEK VA INGLIZ METAFORALARINING QIYOSIY TAHLILI	364-368
<i>Saydullayeva Dilrabo Ilxom qizi</i> SODIQIY AFSHORNING "MAJMA UL-HAVAS" TAZKIRASI VA UNING O'ZBEK TAZKIRASHUNOSLIGIDAGI AHAMIYATI	369-372

12.00.00 - YURIDIK FANLAR

<i>Нурпеисов Еркеш, Ибраева Алуа, Сманова Акмарал</i> КОНСТИТУЦИОННОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРИАДЫ В ИСТОРИЧЕСКОМ ВЫБОРЕ КАЗАХСТАНА	373-379
<i>Камалов Мансурхон Мухтарович</i> К ВОПРОСУ О КОНФЛИКТЕ ИНТЕРЕСОВ В КОРПОРАТИВНЫХ ОТНОШЕНИЯХ	380-385
<i>Komilov Avazbek Bokijonovich</i> QONUN BUZILISHI, UNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BUNGA IMKONIYAT YARATIB BERAYOTGAN SHART-SHAROITLARNI BARTARAF ETISH TO'G'RISIDAGI PROKUROR TAQDIMNOMASINING MAZMUNI VA UNGA QO'YILGAN TALABLAR	386-394
<i>Xolov Utkir Shomurodovich,</i> QONUNY KUCHGA KIRGAN SUD Hujjatlari Yangi Ochilgan Holatlar bo'yicha qayta ko'rishning ayrim masalalari	395-399
<i>Kuldoshev Ulug'bek Otabek o'g'li</i> KASB YUZASIDAN O'Z VAZIFALARINI LOZIM DARAJADA BAJARMASLIK VA XAVF OSTIDA QOLDIRISH JINOYATLARINING SUBYEKTI VA ULARNING FARQLI JIHATLARI	400-407

<i>Ибрагимова Сабина Эркиновна</i> К ВОПРОСУ О ДАЛЬНЕЙШЕЙ ИМПЛЕМЕНТАЦИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ СТАНДАРТОВ ПРАВОСУДИЯ НА ДОСУДЕБНОЙ СТАДИИ, В УГОЛОВНО- ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	408-413
<i>Avezov Dilshod Sadulayevich</i> MAHALLIY KENGASH DEPUTATINI CHAQIRIB OLISH MASALALARI VA UNING XUSUSIYATLARI	414-418
<i>Haydarov Jaloliddin Hamza o'g'li</i> VALYUTA QIMMATLIKLARINI QONUNGA XILOF RAVISHDA OLISH YOKI O'TKAZISH JINOYATINING PREDMETI TAHLILI	419-423
<i>Zairov Asadbek Sayfullo o'g'li</i> INKLYUZIV TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA QONUNCHILIK BAZASINING ROLI	424-432
<i>Karimov Bekmurodjon Anvarjonovich</i> BMT INSON HUQUQLARI BO'YICHA SHARTNOMAVIY ORGANLARI TIZIMINI KUCHAYTIRISH	433-442
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna</i> ZAMONAVIY OLIY TA'LIMDA KREATIVLIKNI TASHXISLASH METODIKALARINI QO'LLASHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	443-449
<i>Raxmatov Otabek Urinbosarovich</i> "JISMONIY TARBIYA VA SPORT PEDAGOGIKASI" FANINING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATI MUTAXASSISLARINI TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI	450-455
<i>Xamroyev Samijon Salimovich</i> SPORT TO'GARAGI MAHG'ULOTLARIGA TALABALAR QIZIQISHLARINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZLIKNI TA'MINLASH VOSITALARI	456-461
<i>Berdiyeva Nilufar Ibodullayevna</i> TALABALARDA INSHONING MAZMUNII- MANTIQUIY BAYON QILINISHIGA DOIR BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALARNI SHAKLLANTIRISH	462-467
<i>Ortiqov Bekruh Baxodir o'g'li</i> ZAMONAVIY VOLEYBOLCHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGI VA BIOMEXANIK XUSUSIYATLARI HAMDA SAMARADORLIKKA TA'SIRI	468-472
<i>Jumayeva Xulkarxon Muxammadjonovna</i> TALABALARNI INVARIANTIV VA VARIATIV TAHDIDLARDAN HIMOYALASHNING PEDAGOGIK STRATEGIYASI	473-480
<i>Avliyaqulov Tolib Xolmurodovich,</i> TALABALAR KASBIY-AXLOQIY TAYYORGARLIGIGA QADRIYATLARGA ASOSLANGAN YONDASHUV	481-486
<i>O'tashev Xasan Nematullayevich</i> OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA SPORT ISHLARINING USTUVOR VAZIFASI SIFATIDA SPORT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MUHIM JIHALTLARI	487-492
<i>Axmadjanov Doniyor Baxtiyor o'g'li</i> BO'LAJAK TARIX O'QITUVCHISINING AXLOQIY YETAKCHILIGI VA KASBIY FAZILATLARI	493-500

<i>Mengliyev Bobur Normamatovich</i> O'QITUVCHILARNI PEDAGOGIK KOMPETENTLIGINI TAHLIL QILISH USULLARI	501-507
<i>Gafforov Alisher Xolmurodovich</i> PROFESSIONAL TA'LIM MUASSASALARI RAQAMLI TA'LIM RESURLARINI LOYIHALASH, TIZIMLASHTIRISH VA UNING MAZMUNI	508-518
<i>Qurbonova Bonu Quvondiq qizi</i> BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI KITOBGA QIZIQTIRISH: SAMARALI USULLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	519-524
<i>Zubaydullayev O'ktam Raim o'g'li</i> O'QUVCHI SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA SAN'ATNING O'RNI	525-529
<i>Raximov Nurillo Narzullaevish</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHISINI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASH: MUAMMO VA YECHIMLAR	530-538
<i>Ergashova Munisa Hoshim qizi</i> MUSTAQIL TA'LIMNI O'YINLAR ORQALI TASHKIL ETISH	539-543
<i>Nuriddinova Madina, Nuriddinov Muhriddin</i> USING WIKI-TECHNOLOGY TO IMPROVE STUDENTS' WRITING COMPETENCE	544-552
<i>Kalekeeva Sarbinaz Turkmenbaevna,</i> O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN ZAMONAVIY YONDASHUVLAR	553-560
<i>Nasriddinova Hulkar Komiljonovna,</i> RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BOSHLANG'ICH SINFLAR MATEMATIKA TA'LIMIDA QO'LLANILISHI IMKONIYATLARI	561-565
<i>Evatov Saminjon Sobirovich</i> JAMOAVIY FAOLIYATNI TASHKEL ETISH ASOSIDA O'QUVCHILARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH	566-572
<i>Samatova Shohsanam Xolmuhammad qizi</i> BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA KOGNITIV YONDASHUV ASOSIDA TIZIMLI FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISH TAMOYILLARI	573-577
<i>Idrisov Mironshoh Ilyos o'g'li</i> TALABALARNI JISMONIY TARBIYA, SPORT VA TURIZM VOSITALARI BILAN SOG'LOMLASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI	578-582
<i>Nasriddinova Nilufar Shuxrat qizi</i> 1-SINF ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING INTENSIVLIGINI TA'MINLASH METODIKASI	583-587
<i>Yavkochdiyeva Dilafruz</i> TALABALARNI PEDAGOGIK KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "STAATE" INNOVATSION TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISH	588-593

Received: 16 February 2025

Accepted: 5 March 2025

Published: 20 March 2025

Article / Original Paper

THE DEVELOPMENT OF THE HEALTHCARE SYSTEM IN THE JIZZAKH REGION (SECOND HALF OF THE 19th CENTURY - EARLY 20th CENTURY)

Bobobekova Nargiza Ismatullayevna
doctoral student of KarSU

Abstract. This study examines the historical evolution of the healthcare system in the Jizzakh region during the second half of the 19th century and the early 20th century. The research focuses on the establishment of medical institutions, the provision of healthcare services, and the challenges encountered in delivering medical assistance. Particular attention is given to the prevalence of infectious diseases and epidemics, their causes, and the strategies implemented to mitigate their impact. The study provides a chronological analysis of healthcare developments and assesses the effectiveness of measures taken to improve public health in the region.

Keywords: medical science, public health, healthcare services, medical personnel, feldsher, medical facility, outpatient clinic, hospital, infectious diseases, dracunculiasis, epidemic control.

JIZZAX VILOYATI SOG'LIQNI SAQLASH TIZIMI FAOLIYATI TARIXI (XIX ASR IKKINCHI YARMI - XX ASR BOSHLARI)

Bobobekova Nargiza Ismatullayeva,
QarDU doktoranti
E-mail: ismatullayeva88@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlarida Jizzax viloyati sog'liqni saqlash tizimida amalga oshirilgan ishlar, o'zgarishlar, yangi ochilgan tibbiy muassasalar va ularda tibbiy xizmat ko'rsatish darajasi qay holatda bo'lganligi, yillar kesimi asosida tahliliy yoritilgan. Shuningdek, mazkur yillarda mahalliy aholiga xavf solib turgan kasalliklar, epidemiyalar, ularning kelib chiqish sabablariga to'xtalib, ularni bartaraf etish masalasi Jizzax viloyatida qanday tashkillashtirilganligi ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: tabobat ilmi, sog'liqni saqlash, tibbiy xizmat, tibbiyot xodimi, feldsher, medpunkt, ambulatoriya, shifoxona, yuqumli kasallik, rishta, epidemiya.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I3Y2025N03>

Kirish. Tibbiyot va sog'liqni saqlash borasidagi muammolar insoniyat yaralibdiki, bosh masala bo'lib kelgan. Yurtimiz ham jahon sivilizatsiyasining beshigi sifatida tabobat ilmi ilk rivoj topgan makonlardan biridir. Tabib Ali ibn Abbos tabobatga shunday ta'rif beradi: "U-sog'lomlarga sog'liqni saqlashni va kasallarga uni qaytarishni o'rgatadigan ilmdir"[1; 1-b].

Qadimdan yurtimizda tabobat ilmi alohida o'ziga xoslik kasb etib, ushbu zaminda yashagan insonlarning sog'liqni saqlashga oid orttirgan tajribalari va sog'lom hayot kechirishga doir aqidalari vaqt o'tishi bilan xalqning salomatlik madaniyati o'zagini tashkil qilgan. Shuni aytib o'tish kerakki, qadim O'zbekiston xalqlarining tibbiy empirik bilimlari hamda salomatlik madaniyatining shakllanishida o'z navbatida geografik omil, iqlim sharoiti, hududning nabotot va hayvonot olami muhim rol o'ynagan. So'ngra Islom dinining kirib kelishi bilan shaxsiy ozodalik qoidalari hamda jamoaviy salomatlik masalalari g'oyaviy jihatdan mustahkamlanib,

oldin to'plangan tibbiy sohadagi empirik tajribalar, bilimlar ilmiy jihatdan asoslangan. Natijada, Abu Sahl al-Masihiy [2; 1-b], Abu Ali ibn Sino, Sharafiddin Abdulloh, Abul Hayr ibn Hammar, Ismoil Jurjoniy, Mahmud ibn Umar Chag'iniy, Abu Mansur Qamariy, Najibuddin Samarqandiy [3; 262-b], Yusuf Haraviy, Darvish Hakim, Junaydulloh Hoziq, Mahmud Hakim Yayfoni, Bositxon ibn Zohidxon Shoshiy [4; 8-b] kabi tib ilmi olimlarining sa'y-harakatlari evaziga ulkan tibbiy meros yaratildi va avlodlarga yetkazildi. Har bir tib vakili o'zi olib borgan izlanishlar samarasi o'laroq qo'lga kiritgan tajriba va yutuqlarni milliy tibbiyot taraqqiyotiga yo'naltirdi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yurtimizda hukmronlik qilgan turli sulolalar davrida tibga qaratilgan e'tibor natijasida soha yangi tajriba va bilimlar bilan boyib borgan. Afsuski, so'nggi o'rta asrlarga kelganda Turkiston o'lkasidagi xonliklarda yuz bergan turg'unlik tibbiy sohada ham o'z aksini topdi. Buning natijasida Rossiya imperiyasi bosqinidan so'ng g'arbga xos tibbiy qarashlar, bilimlar kirib keldi. Uyezd boshqarmasi joylashgan yangi shaharlarda tibbiyot muassalari paydo bo'la boshladi. Harbiy garnizonlar qoshida harbiylar va ularning oilalariga tibbiy yordam ko'rsatish uchun kasalxona (lazaret)lar qurildi. Bu jarayonlar Turkistonning eng asosiy regionlaridan biri bo'lgan Jizzax vohasida ham o'ziga xos tarzda tashkillashtirildi.

Manbalardan kelib chiqib tan olish kerakki, so'ngi o'rta asrlardagi turg'unlik bois, Jizzax vohasi hududlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish ancha nochor ahvolga kelgan bo'lib, aholi orasida turli yuqumli kasalliklar-vabo, o'lat, chechak, terlama, bezgak kabi, shuningdek rishta [5; 32-b] singari turli kasalliklar keng tarqalgan edi. Afsuski ushbu qurilgan tibbiy muassasalar shahar aholisining rus fuqarolari joylashgan, "Yangi shahar" deb nomlangan qismida tashkil etilgan bo'lib, mahalliy aholi bu xizmatdan deyarli mahrum edi. Sababi o'sha davrda Turkiston o'lkasida ochilgan shifoxonalar, tibbiy tarmoqlar va ularda ishlagan tibbiyot xodimlarining xizmatlari asosan rus amaldorlari va harbiylarini davolashga qaratilgan edi.

1867-yilda Jizzax uyezdida tashkil etildi. Jizzax uyezdining markaziy shahri asosan ikki qismga bo'linar edi. Yangi shaharda uyezd boshqarmasi, harbiylar va ularning oilalari yashardi. 1870-yilda Jizzax uyezdida boshqarmasi qoshida 4 o'rinli [6; 223-b] birinchi tibbiyot punkti ochildi. Bu o'sha davrda hozirgi Jizzax viloyati hududidagi yagona shifoxona bo'lib, unda o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan harbiy feldsher G.M.Fomin [7; 4-b] rahbar etib tayinlandi. Medpunkt asosan uyezd xodimlariga, ularning oila a'zolariga va uyezd boshqarmasi ixtiyoridagi harbiy bo'linmaga xizmat qilardi. Mahalliy aholi uchun tibbiy yordam yopiqlicha qoldi. Ayrim hollarda birgina istisno bor edi, ya'ni mahalliy aholidan uyezd boshqarmasiga tobe bo'lgan amaldorlarga medpunkt xizmatidan foydalanishi mumkin edi. Ammo tibbiy xizmat pullik va chegaralanganligi hisobga olinsa hamma ham bu imtiyozdan to'liq foydalana olmasdi.

Muhokama. "O'sha davrda, Jizzax Turkiston uyezdilari ichida sog'lom turmush kechirish uchun imkoniyatlari chegaralangan hudud hisoblanib, iqlimi issiq, yer osti suvlari yaqin, ichiladigan suvning iflosligi sababli bu voha har xil yuqumli kasalliklar-bezgak, rishta, kuydirgi va isitma kasalliklarining makoni bo'lgan", — deb yozadi, Sunnat Qosimov.(1982 yil, Viloyat kasalxonasining shifokori)

Shuningdek, og'ir mehnat, qashshoqlik, yashash sharoitining yomonligi tufayli Jizzax aholisi o'rtasida sil, shilpiq (traxoma), qichima, qo'tir, zaxm, terlama, ichburug', qizamiq, bo'g'ma kasalliklari keng tarqalganligini qayd etgan. Bu davrda chechak, vabo, o'lat va boshqa yuqumli kasalliklarning keng yoyilishi yuzlab bemorlari hayotdan olib ketgan. Sababi, mahalliy aholi yashaydigan eski shaharda tibbiy xizmat yaxshi yo'lga qo'yilmaga edi. To'g'ri, asrlararo

shakllangan xalq tabobati mavjud edi, ammo bu kabi keng ko'lamli epidemiyalar davrida o'z davrining zamonaviy tibbiyotiga bo'lgan talab kuchli edi. Misol uchun, XIX asrning 80-90-yillari Turkiston o'lkasining hamma vohalarida chechak kasalligi tarqalgandi. Uning xalq orasida vahima tarqatgan qora chechak deb nomlanuvchi turlari ham mavjud bo'lgan. Achinarlisi, bu kasallik aholi orasida har 6-7 yilda takrorlanib turgan. Epidemiyalar davrida chechak bilan og'riqlarning 46-48 foizi halok bo'lardi. Katta yoshdagi bemorlarning 16,1, bolalarning 67 foizidan ko'prog'ida kasallik o'z asoratini qoldirardi [8;4-b]. 1896-yilda boshlangan ushbu epidemiya Turkiston o'lkasida 1910-yilgacha davom etdi.

Aholi orasida tibbiy xizmatning nochorligi sababli qora chechakka o'xshash boshqa o'ta xatarli kasalliklar, misol vabo epidemiyasi ham tez tez sodir bo'lib turardi. 1872-yilgi vabo Jizzax, Xo'jand, Qo'qon uyezdlarida va Chimkent shahrida yashovchi aholi orasiga ham keng tarqalgan, natijada Turkiston o'lkasida 38 ming kishi nobud bo'lgan [9; 550-b]. Ayniqsa 1892-yilgi vabo Turkiston o'lkasining hamma viloyatlarida keng tarqaladi. Manbalardan qayd qilinishicha, Samarqand viloyatida (Jizzax uyezi 1886-yildan boshlab shu viloyat tarkibiga kirgan [10;47-b]) 8211 kishi, Sirdaryo viloyatida 4916 va Farg'ona viloyatida 10 277 kishi epidemiya natijasida halok bo'lgan. 1982-yildan to XX asr boshlarigacha 6 marta vabo epidemiyasi bo'lib [11; 551-b], minglab kishilarning hayotiga zomin bo'lgan.

XIX asr Turkiston o'lkasining mahalliy aholisi orasida keng tarqalgan kasalliklardan yana biri — rishta (Rishta – odamlar va hayvonlar terisi ostida yashaydigan yumaloq gijja qo'zg'atadigan kasallik. Odamlarga ifloslangan suv orqali yuqishi tufayli hamma vaqt xavf tug'diradi) edi. Ushbu kasallik ayniqsa Samarqand, Jizzax va Buxoroda yashovchi mahalliy aholi orasida ko'p uchragan. Masalan, Buxorodek katta shahar aholisining beshdan bir qismidan ko'prog'i ushbu kasallik bilan aziyat chekkan [12; 551-b].

O'sha davrda Turkiston o'lkasida keng tarqalgan bezgak kasalligi Jizzax uyezi aholisini ham o'z domiga tortgandi. Uyezd boshqarmasining hisobotlariga ko'ra, 1892-1893-yillari Jizzaxning eski shahar aholisi o'rtasida boshlangan bezgak ko'p o'tmay uyezdning barcha volostlariga tarqab ketgan. Undan ayniqsa O'zbek, Ravot, Qoratosh, Sangzor, Sovrum, Bog'don, Forish, Yangiariq, Yom, O'smat, Qoratosh, Chashnov, Ko'ktepa volostlarining aholisi katta talafot ko'rgan [13;4-b]. Kasallikning tobora kengayib borayotganligidan xavfsiragan imperiya hukumati harbiylar orasida bezgak kasalligining tarqalish sabablarini o'rganib chiqish va unga qarshi chora ko'rish uchun maxsus komissiya tuzishga majbur bo'ladi. Biroq komissiya xulosalari mahalliy aholi ahvoliga ta'sir etmagan. Sababini esa shunday izohlamok maqsadga muvofiq bo'ladi, ya'ni o'sha paytlarda Turkistonda bezgak ba boshqa kasalliklarning kelib chiqishi hamda tarqalishi masalalariga imperiya hukumati tomonidan kam e'tibor berilib, oz mablag' ajratilishi, mazkur kasalliklarga qarshi kurash ishlari rejasiz, asosiysi tartibsiz ravishda olib borilgan. Qolaversa, shifokor va o'rta tibbiyot xodimlari ham nihoyatda ozchilikni tashkil etgan. Misol uchun, 1900-yili imperiya amaldorlarining oila a'zolariga tibbiy xizmat ko'rsatish uchun shifoxona ochilib, unda 3 nafar o'rta malakali tibbiyot xodimi ishlagan [14;223-b]. Bundan xulosa qilish mumkinki, kasallikka qarshi kurashish biror uyezd joylashgan shahardan, yoki uning yon atroflaridan nariga o'tmagan.

Natijalar. 1908-yili Jizzax uyezdiga doimiy ishlash uchun harbiy shifokor, tibbiy xizmat polkovnigi Ivan Nikolayevich Sametskiy keladi. I.N.Sametskiy Jizzaxga kelib ishlagan birinchi shifokordir. U 1872-yilda Belorussiyada tug'ilgan. 1895-yilda Tomskiy universitetining tibbiyot fakultetini bitirgach, Ukrainaning Volinskiy guberniyasida qishloq shifokori bo'lib ishlagan.

So'ngra harbiy xizmatga chaqiriladi. 1905-yil Turkiston hududida tarqalgan vabo Mari shahrida turgan rus qo'shinlariga ham xavf soldi. Shu yili epidemiyaga qarshi kurashish uchun Rossiyadan harbiy shifokorlar jalb etilib, ular qatorida I.N.Sametskiy ham bor edi. U Mari stansiyasida temiryo'lchilar shifokori bo'lib ishladi. Vabo epidemiyasi o'tgach, Ivan Nikolayevich Jizzax uyezdiga yuboriladi. Manbalarga ko'ra, I.N.Sametskiy kelgach, Jizzax uyezdida tibbiy xizmat ancha yaxshilanib, kasalxona, ambulatoriya va qishloq joylaridagi medpunktlarda aholiga tibbiy yordamning sifati oshgan. Tibbiyot muassasalarida tartib o'rnatilib, dorilar ta'minoti birmuncha yaxshilangan. Shahardagi mavjud hammomlar ishi sezilarli darajada kuchaytirilgan[15; 4-b].

Shuningdek, I.N.Sametskiy og'ir bemorlarni kasalxonada va uylarida davolashni yo'lga qo'ydi. U ambulatoriyada bemor qabul qilish bilan birga o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimlariga yo'l-yo'riqlar ko'rsatib, mahalliy aholi orasidan chechakka qarshi emlash uchun maxsus guruh tayyorlagan. I.N.Sametskiyning rafiqasi Sofiya Andriyevna Sametskaya Jizzaxga kelgan yillarini shunday xotirlaydi: "Jizzax kichik qo'rg'on tipidagi shaharcha bo'lib, uch qismdan iborat edi. Vokzal atrofi, yangi shahar va eski shahar kabi qismlarga bo'linardi. Vokzaldan yangi shahar orqali eski shaharga tosh yo'l mavjud edi. Aholi suvni ariq va hovuzlardan ichardi. Biz kelgan yili (1908-yil) Jizzaxda 16 000 dan ziyodroq aholi bo'lib, shundan 300 nafarini ruslar tashkil etardi. O'zbeklar vokzal atrofi va eski shaharda yashar edilar. Biz kelgan yili mahalliy aholi orasida vabo kasalligi tarqalgan edi. Shunga qaramay mahalliy hukumat tomonidan biror chora ko'rilmadi".[16; 4-b]

Uning xotiralariga ko'ra, Ivan Nikolayevich tinim bilmay ishlar, asosiy maqsadi esa kasalxona sharoitini yaxshilash, ambulatoriya xizmatini kuchaytirish, dori-darmonlar turini ko'paytirish, yuqumli kasalliklarning tarqalishiga yo'l qo'ymaslik, ayniqsa, mahalliy aholiga qo'lidan kelgancha yordam ko'rsatishdan iborat bo'lgan. Shu maqsadda ot bilan bir necha kunlab qishloq joylarga-Jizzax, Yangiqo'rg'on (G'allaorol), O'smat, Zomin va Forish volostlariga borganligi qayd etgan[O'sha manba; 4-b].

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, Jizzax uyezdida uchraydigan kasalliklarning turi ko'p edi. Bu haqda shifokor Sunnat Qosimov "Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar" nomli maqolasida atroflicha to'xtalib o'tgan. Uning fikriga ko'ra, oshqozon, ichak va jigar kasalliklari mavsumiy kasalliklar hisoblanib, qish va bahor oylarida kamaysa, bezgak, terlatma, sil, shilpiq (traxoma), qichima, qo'tir, zaxm, so'zak, kuydirgi, rishta va turli xil shamollash kasalliklari qishin-yozin birday uchragan. Jizzaxda jarrohlik yordami ham yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi bois, ko'plab o'tkir xirurgiya kasalliklarga, ayrim yiringli kasalliklarga chalingan bemorlar vafot etardi, deb yozadi o'z maqolasida.

Jizzax uyezdida uchragan kasalliklar Turkiston o'lkasining boshqa yerlarida bo'lganidek, mukammal hisobga olinmas edi. Shifoxonalarning yillik hisobotida va ular faoliyati haqida yozilgan hujjatlarda faqatgina shifoxonalarga murojaat qilgan bemorlar soni, kasalliklar turi ko'rsatilar edi, xolos. Ko'pgina kasalliklar epidemiya xarakteriga ega edi. Shu tufayli ham kishilar qisqa umr ko'rardilar. A.Ibodovning yozishicha (1963-yil), o'sha davrlarda kishilarning o'rtacha umri 32 yoshga teng bo'lgan. 1914-yilgacha Turkiston o'lkasida tug'ilgan bolalarning 1000 nafaridan bir yoshgacha 300 bola, ayrim yillari esa 600-700 bola halok bo'lardi. Jizzax uyezdida ham ahvol bundan o'zgacha bo'lmagan [17; 4-b].

1910-1912-yillarda Turkiston o'lkasida qishloq aholisini davolash uchun 10-15 o'rinli shifoxonalar qurilgan. Bundan tashqari qator feldsherlik punktlari qishloq vrachlik

ambulatoriyasiga aylantirilib, shifokor, feldsher-akusherlar ishlashi uchun shtatlar berilgani. Natijada qishloq aholisiga tibbiy yordam ko'rsatish birmuncha yaxshilangan. Jumladan, 1910-yilda shifoxona shahar ambulatoriyasiga aylantirilib, bir shifokor va besh nafar hamshira biriktirilgan.[18; 223-b]

1913-yil G'allaorol va Zominda 10 o'rinli ikkita kasalxona ishga tushirilgan. G'allaorol kasalxonasida feldsher G.A. Sorokin, Zomin kasalxonasida feldsher F.M.Vasilyev ish boshlagan. Shuningdek bu kasalxonalar qoshida qatnab davolanuvchi bemorlar uchun ambulatoriyalar ham ochiladi. Yotib va qatnab davolanuvchi bemorlarga yagona feldsher xizmat qilar, bemorlarga dori darmonlar kasalxona dorixonasida sotilardi. 1914-yilga kelib qishloq joylarida ham dorixonalar ochila boshlagan. Ammo mahalliy aholi yashaydigan qishloq joylari bundan mustasno edi.

Asta-sekin uyezdlar shifokorlar bilan ta'minlana boshlangan. Bu paytda har bir uyezdga 1-2 nafar shifokor to'g'ri kelgan. Uyezd shifokorlari bir yo'la sud-medsinasi eksperti vazifasini ham bajarardi. Bu davrga kelib meditsina xizmati uchun davlat tomonidan ko'proq mablag' ajratiladigan bo'lgan. I.A.Yamzinining ma'lumotiga (1914 yil) asoslanib N.M.Mahmudova quyidagilarni yozadi: "berilgan mablag' jon boshiga 1898-yildagi 3-4 tiyin o'rniga, 21 tiyindan to'g'ri kelardi. Samarqand viloyati bo'yicha odam boshiga 11 tiyin, Farg'ona viloyati bo'yicha 16 tiyin, Sirdaryo viloyati bo'yicha 21 tiyin sarflanardi. Lekin bularning hammasi jon boshiga 16 tiyindan 66 tiyingacha to'laydigan Rossiyaning markazida joylashgan guberniyalarning xarajatidan ancha kam edi"[19;4-b].

1915-yillarga kelib Jizzaxda sog'liqni saqlash ishlari biroz oldinga siljiganligi qayd etiladi manbalarda. I.N.Sametskiyning tashabbusi va uning uyezd boshliqlariga talabchanligi tufayli davolash muassasalari uchun shifoxonalar yonida yana qo'shimcha xonalar ajratiladi. Shundan so'ng bir uyda kasalxona, ikkinchi uyda ambulatoriya va dorixonalar joylashtirilgan. Uchinchi uy tibbiyot xodimlariga yashashi uchun berilgan, deb yozadi Sunnat Qosimov o'z maqolasida.

1915-yili Jizzax shahrida dorixona shifoxonadan ajratilib, mustaqil faoliyat ko'rsata boshlagani. Davolanuvchi bemorlar shifokor nazoratidan o'tadigan bo'lishadi. Uyda yotgan kasallarni borib ko'rish tashkil qilingan. Ambulatoriyaga qatnab davolanadiganlar soni ko'payib, kuniga 40-50 kishiga etgan. (1905-yili 10-15 kishidan iborat bo'lgan.) Yangiqo'rg'on, Bag'don, Forish va Zomin volostlaridagi medpunktlar tajribali feldsherlar bilan ta'minlandi. Ular mahalliy aholi orasida obro' qozondilar.

Shahar va qishloqlarda yuqumli kasalliklarning oldini olish ishlari boshlanib, chechakka qarshi emlash tadbirlari harakatga kirgan. Jizzax tumanida Eshonqulov Xudoyberdiyev, Forishda Cho'li Ermanov, Yangi qo'rg'onda Qoraboy Sayfiyev, O'smatda Inom Shukurov, Zominda Haydar Elamonov kabi chechakka qarshi emlovchilar o'sha yillari xalq hurmatiga erishgan edilar. I.N.Sametskiy tashabbusi bilan sanitariya epidemiologiya ishlari kuchaytirilgan. 1915-yilga kelib Jizzax uyezd hududida 35 o'rinli 3 ta shifoxona, 10 o'rinli 1 ta harbiy lazaret, 3 ta ambulatoriya, 3 ta feldsherlik punkti, 1 nafar shifokor hamda 9 nafar o'rta tibbiyot xodimi mavjud edi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki deng, mumkinki, hayotning barcha jabhalarida tamaddunini boshlagan Turkiston hududida xonliklar davridan boshlab (XVII-XIX asr ikkinchi yarmigacha) ijtimoiy sohalarda bo'lgani kabi tibbiyotda ham turg'unlik kuzatilgan. Albatta bu mavjud ijtimoiy-iqtisodiy tanazzul, kuchli, markazlashgan siyosatning yo'qligi bilan izohlanadi. Xususan, tibbiy muassasalarning soni aholi soniga nisbatan kamligi, moliyalashtirishdagi

muammolar tufayli Turkiston aholisi o'z holiga ma'lum ma'noda tashlab qo'yilgan edi. Bu holat Rossiya imperiya bosqinidan so'ng yanada kuchaydi. To'g'ri G'arb nafasini aks etgan tibbiy muassasalar ochilgan edi. Ammo, ular rasmiy idoralarga tegishli bo'lib, tibbiy xizmat mahalliy aholi salomatligi uchun emas, kam sonli imperiya manfaatlarini himoya etayotgan harbiylar, amaldorlar, rus fuqarolarigagina uchun edi. Shu sabab o'zi og'ir bo'lgan mahalliy xalq ahvoli og'irligicha qolaverdi. Tibbiy xizmatning yo'lga qo'yilgan shakli — zamstvo tibbiyoti edi xolos. Natijada "Barchaga birdek" bo'lgan bu xildagi tibbiyot tashkilotlari salkam 50 yil davomida xalqqa xizmat etgan. Lekin ajratiladigan mablag'larning ozligi, tibbiyot sohasidagi kadrlarni tayyorlashga e'tiborsizlik va sog'liqni saqlash ishlari rejasiz ravishda olib borilishi sababli zamstvo tibbiyoti nihoyatda sekin rivojlandi. Binobarin xalq talabiga ham mutlaqo javob berolmasdi. Shunday qilib, Rossiya imperiyasining mustamlakasi bo'lgan hozirgi O'zbekiston hududida, jumladan Jizzax viloyatida mahalliy aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish bu davrda juda sekin rivojlanish yo'liga olgandi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Islomda tabiyot tarixi // Tavorix. Turkiston tarixi, 19 yanvar 2018 yil
2. Ўзбекистонда тиббиёт тарихи ва ривожини // Yuz yuz Yangi O'zbekiston, 28 yanvar 2022 yil
3. Tagayev. M.A., Do'simmatov.K.Yu. Bolalar tibbiyotining rivojlanish tarixi (1885-1950 yillar). "Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании" Международная научно-практическая онлайн конференция
4. Jumanazarov.X. Turkistonda tibbiyot tarixi (19-yuzyillik so'ngi – 20-yuzyillik boshi). Fan, T:2024 yil, 8-b
5. Jumanazarov.X. Turkistonda tibbiyot tarixi (19-yuzyillik so'ngi – 20-yuzyillik boshi). Fan, T:2024 yil, 32-b
6. Haydarov.H. Jizzax viloyati tarixi.Mehnat, T:1996 yil. 223-b
7. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 7 dekabr 1982 yil №147 (1336), 4-b
8. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 7 dekabr 1982 yil №147 (1336), 4-b
9. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. S harfi, T:2000-2005 yillar, 550-b
10. Tillaboyev.S., Zamonov.A. O'zbekiston tarixi (XIX asrning ikkinchi yarmi-XX asr boshlari), T: 2014 yil, 47-b
11. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. S harfi, T:2000-2005 yillar, 551-b
12. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. S harfi, T:2000-2005 yillar, 551-b
13. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 7 dekabr 1982 yil №147 (1336), 4-b
14. Haydarov.H. Jizzax viloyati tarixi.Mehnat, T:1996 yil. 223-b
15. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 11 dekabr 1982 yil №149 (1338), 4-b
16. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 11 dekabr 1982 yil №149 (1338), 4-b
17. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 11 dekabr 1982 yil №149 (1338), 4-b
18. Haydarov.H. Jizzax viloyati tarixi.Mehnat, T:1996 yil. 223-b
19. Qosimov.S. Jizzax meditsinasi tarixidan lavhalar // Jizzax haqiqati, 11 dekabr 1982 yil №149 (1338), 4-b

SCIENCEPROBLEMS.UZ

IJTIMOYIY-GUMANITAR FANLARNING DOLZARB MUAMMOLARI

№ 3 (5) – 2025

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).